

xizmatlarini raqamlashtirish va yer munosabatlarida ochiqlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tizim orqali idoralararo axborot almashinuvi soddalashadi, nazorat mexanizmlari kuchayadi hamda noqonuniy yer ajratish holatlari kamayadi. Natijada yer resurslarini boshqarishning zamonaviy, shaffof va samarali modeli shakllanadi.

Umuman olganda, yer tuzish loyihalarini yaratishda “e-toifa.

uz” avtomatlashtirilgan dasturiy ta'minotidan foydalanish yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ekologik muvozanatni saqlash va hududiy rivojlanishni ilmiy asosda boshqarishning istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi. Kelgusida tizimni GIS texnologiyalari, masofaviy zondlash ma'lumotlari va sun'iy intellekt elementlari bilan integratsiya qilish orqali yer boshqaruvi jarayonlarini yanada takomillashtirish imkoniyati mavjud.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi. – Toshkent: Adolat, 1998.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yer toifalarini o'zgartirish tartibi to'g'risida”gi qarori. – T.: 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-iyundagi PQ–273-son qarori “Yer munosabatlarida shaffoflikni ta'minlash va yer resurslaridan samarali foydalanish choralarini kuchaytirish to'g'risida”.
4. Turayev R.A., “Yer monitoringi” O'quv qo'llanma, Tashkent – 2022.
5. Qodirov B. Yer resurslarini boshqarishning zamonaviy usullari. — Toshkent, 2021.
6. Dale P., McLaughlin J. Land Administration. — Oxford University Press, 2018.
7. Enemark S., Williamson I., Wallace J. Land Administration Systems: Managing Land Rights, Restrictions and Responsibilities. — ESRI Press, 2014.
8. Longley P., Goodchild M., Maguire D., Rhind D. Geographic Information Systems and Science. — Wiley, 2015.
9. FAO (Food and Agriculture Organization). Land Resources Planning for Sustainable Land Management. — Rome, 2019.
10. UNECE. Land Administration Guidelines. — Geneva, 2020.
11. World Bank. Land Governance Assessment Framework. — Washington DC, 2019.

UO‘T: 332.3:631.4:528.7(575.1)

BUXORO VILOYATI QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARI VA YAYLOV YERLARIDAN FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Hazratov Firuz Saidjonovich, mustaqil izlanuvchi

<https://orcid.org/0009-0007-6254-1071>

Hazratova Muxayyo Shakar qizi, tayanch doktorant

<https://orcid.org/0009-0001-7452-1955>

Buxoro davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro viloyati qishloq xo'jaligi yerlari va yaylov yerlarining hozirgi holati, ulardan foydalanish samaradorligi hamda mavjud ekologik va iqtisodiy muammolar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati, sho'rlanish jarayonlari, yaylovlarning degradatsiyasi va chorva bosimining ta'siri o'rganildi. Olingan natijalar asosida yer resurslaridan barqaror va oqilona foydalanishni ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi yerlari, yaylov yerlar, yer degradatsiyasi, sho'rlanish, melioratsiya, Buxoro viloyati.

Аннотация. В статье проанализировано современное состояние сельскохозяйственных земель и пастбищ Бухарской области, эффективность их использования, а также существующие экологические и экономические проблемы. Рассмотрены вопросы мелиоративного состояния орошаемых земель, процессов засоления и деградации пастбищ. На основе полученных результатов предложены практические рекомендации по рациональному использованию земельных ресурсов.

Ключевые слова: сельскохозяйственные земли, пастбища, деградация земель, засоление, мелиорация земель, Бухарский регион.

Abstract. This article analyzes the current state of agricultural and pasture lands in the Bukhara region, their use efficiency, and existing environmental and economic challenges. The study examines land reclamation conditions, salinization processes, and pasture degradation. Based on the results, practical recommendations for sustainable land use are proposed.

Keywords: agricultural land, pasture land, land degradation, salinization, land reclamation, Bukhara region.

Kirish. Yer resurslari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qurg'oqchil iqlim sharoitiga ega hududlarda yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Buxoro viloyati

Mazkur maqolaning maqsadi — Buxoro viloyati qishloq xo'jaligi va yaylov yerlarining hozirgi holatini tahlil qilish hamda ularni barqaror boshqarish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish iqtisodiy barqarorlik va oziq-ovqat xavfsizligining muhim omili ekanini ta'kidlaydi. Muallif sug'orish tizimlarining texnik holati va suv resurslarini boshqarish yer unumdorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [1;2]

Yer resurslarini boshqarishda geografik axborot tizimlari (GAT) va masofadan zondlash texnologiyalari yordamida sho'rlanish, degradatsiya va yer qoplamidagi o'zgarishlarni aniqlash samaradorligi oshadi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni monitoring qilishda innovatsion yondashuvlar ishlab chiqilgan. Xususan, GIS asosida yaylov monitoringini yuritish degradatsiya darajasini aniqlashda muhim vosita sifatida baholangan. [3;4]

Yaylov yerlarining holati va asosiy muammolar. Yaylov yerlar Buxoro viloyati hududining sezilarli qismini egallaydi va chorvachilik tarmog'ini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu

yaylovlar asosan cho‘l va chala cho‘l hududlar joylashgan bo‘lib, ular tabiiy yem-xashak manbai sifatida foydalaniladi.

So‘nggi yillarda yaylovlardan me‘yorida ortiq foydalanish, chorva sonining keskin ortishi va tabiiy o‘simlik qoplaminin yetarli darajada tiklanmasligi yaylov degradatsiyasini kuchaytirmoqda. Natijada tuproqning zichlashuvi, eroziya jarayonlari va biologik xilma-xillikning kamayishi kuzatilmoqda. Bu esa chorvachilik mahsuldorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda yer resurslarini boshqarishda zamonaviy yondashuvlar, jumladan, geografik axborot tizimlari (GAT) va masofadan zondlash texnologiyalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi Buxoro viloyati qishloq xo‘jaligi va yaylov yerlarining zamonaviy tarkibini tizimli tahlil qilish, yer degradatsiyasi va sho‘rlanish omillarini kompleks baholash hamda hududiy yer boshqaruvi uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Materiallar va uslublar. Tadqiqot obyekti sifatida Buxoro viloyati hududidagi sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari hamda yaylov maydonlari tanlandi.

Tadqiqotda kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanilib, quyidagi metodlardan foydalanildi:

- rasmiy statistik ma‘lumotlar tahlili;
- qiyosiy-geografik baholash;
- kartografik tahlil;
- yer resurslarining sifat ko‘rsatkichlarini tavsifiy tahlil qilish.

Ma‘lumotlar manbai sifatida O‘zbekiston Respublikasi rasmiy statistik materiallari va hududiy yer resurslari bo‘yicha ochiq ma‘lumotlar bazasi ishlatildi. Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holati, sho‘rlanish darajasi hamda yaylov degradatsiyasi ko‘rsatkichlari umumlashtirildi.

Tahlil jarayonida yer fondi tarkibi, ulardan foydalanish samaradorligi va asosiy ekologik muammolar baholandi.

Tadqiqot jarayonida Buxoro viloyati yer resurslarining hozirgi holati, ulardan foydalanish darajasi hamda degradatsiya jarayonlarini baholashga qaratilgan kompleks yondashuv qo‘llanildi.

Tadqiqotning asosiy materiallari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, viloyat yer resurslari va davlat kadastri boshqarmasi hamda yer tuzish tashkilotlarining rasmiy hisobot ma‘lumotlari foydalanildi. Shuningdek, hududiy yer fondi tuzilmasini aniqlashda statistik to‘plamlar, kartografik materiallar va ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi.

Tadqiqotda qiyosiy-statistik tahlil, tizimli yondashuv, kartografik va geografik axborot tizimlari (GIS) asosidagi tahlil usullaridan foydalanildi. Yer fondi tarkibi, ularning turlari, foydalanish darajasi va hududiy taqsimoti ko‘rsatkichlari o‘zaro solishtirma tahlil qilindi.

Natijalar va munozara. Aniqlanishicha, yaylov yerlar ulushining yuqoriligi viloyatda chorvachilik tarmog‘ining ustuvor yo‘nalish ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yaylovlardan intensiv foydalanish degradatsiya jarayonlarini kuchaytirayotganligi qayd etildi.

Sug‘oriladigan yerlar tarkibida esa sho‘rlanish va meliorativ holatning yomonlashuvi asosiy muammolar sifatida aniqlandi. Mazkur omillar tuproq unumdorligi va hosildorlik ko‘rsatkichlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

1-jadval

Buxoro viloyati yer fondi tarkibi (2025 yil)

Yer toifasi	Maydon, ming ga	Ulushi, %
Yaylov yerlar	1875.4	54.2
Sug‘oriladigan qishloq xo‘jalik yerlar	1121.6	32.4
Lalmikor yerlar	214.3	6.2
O‘rmon va butazor yerlar	78.5	2.3
Boshqa yerlar	170.2	4.9
Jami	3459.9	100

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, viloyat yer fondida yaylov yerlar eng katta ulushni egallab, umumiy maydonning 54,2 foizini tashkil etadi.

Natijalar va munozara. Olib borilgan tahlillar natijasida Buxoro viloyati yer fondining tarkibi va ulardan foydalanish holati o‘rganildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra yaylov yerlarining yuqori ulushi hudud iqtisodiyoti uchun muhim bo‘lsa-da, chorva bosimining ortishi ekologik muvozanatga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar yaylovlardan me‘yorida ortiq foydalanish tuproq zichlashuvi va o‘simlik qoplaminin siyraklashuviga olib kelishini tasdiqlaydi.

Sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlarining ulushi 32,4 foizni tashkil etib, ular hududning asosiy qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish bazasi hisoblanadi [2].

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- Buxoro viloyati yer fondining zamonaviy tarkibi tizimli tahlil qilindi;
- sug‘oriladigan va yaylov yerlarining ekologik muammolari kompleks baholandi;
- degradatsiya va sho‘rlanish omillari hududiy jihatdan asoslandi;
- yer resurslaridan barqaror foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Buxoro viloyati qishloq xo‘jaligi va yaylov yerlaridan foydalanish jarayonida bir qator muammolar mavjud ekani aniqlandi. Xususan, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatining yomonlashuvi, sho‘rlanish jarayonlarining kuchayishi va yaylovlardan me‘yorida ortiq foydalanish yer resurslari unumdorligining pasayishiga olib kelmoqda. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, viloyat yer fondining 54.2% ini yaylov yerlar tashkil etishi hududda chorvachilik salohiyati yuqori ekanini ko‘rsatadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- sho‘rlangan yerlarni rekultivatsiya qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan tadbirlarni amalga oshirish;
- yaylovlardan foydalanish me‘yorlarini belgilash va chorva bosimini hududlar kesimida tartibga solish;
- yer resurslarini boshqarishda GAT va masofadan zondlash texnologiyalarini keng joriy etish.

ADABIYOTLAR

1. Karimov A.A. Qishloq xo‘jaligi yerlaridan oqilona foydalanish masalalari. – Toshkent, O‘zbekiston, 2019, 120–125-b.
2. Abdullayev B.R. Yaylov yerlarining degradatsiyasi va ularni muhofaza qilish. – Samarqand, O‘zbekiston, 2020, 45–50-b.
3. Islomov S.S. Yer resurslarini boshqarishda zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent, O‘zbekiston, 2021, 78–83-b.
4. Xazratov F.S., Xazratova M.Sh. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi yerlaridan unumli foydalanishni monitoring qilish. Sharq falsafasi, 2025, 7–10-b.
5. Xazratov F.S., Xazratova M.Sh. GIS asosida yaylov monitoringini yuritishning innovatsion yondashuvi. Buxoro DTU Ilmiy axborotlari, 2025, №2.
6. Karimov B., GIS texnologiyalarining yer boshqaruvdagi roli